

BOSHLANG'ICH TA'LIM METODOLOGIYASINING ILMIY-METODIK ASOSLARI*Ilmiy rahbar: prof. Ernazarova M.S**Navoiy davlat universiteti**Boshlang'ich ta'lim kafedrasi mudiri***Xamzayeva Yulduz***Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 25.11.2025**Revised: 26.11.2025**Accepted: 27.11.2025***KALIT SO'ZLAR:***metodologiya,
boshlang'ich ta'lim,
metodika,
kompetensiya,
innovatsion
texnologiya,
interaktiv usul, ta'lim
sifati, didaktika**Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim metodologiyasining nazariy va amaliy asoslari, o'quv jarayonini ilmiy-metodik jihatdan tashkil etish tamoyillari, o'qituvchining metodik kompetensiyasini shakllantirish yo'nalishlari yoritilgan. Boshlang'ich ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va interaktiv yondashuvlarning ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan.*

Bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning markazida inson kapitalini rivojlantirish, zamonaviy bilim, ko'nikma va kompetensiyalarga ega yoshlarni tarbiyalash masalasi turibdi. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich ta'lim tizimi ta'limning poydevori sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan boshlang'ich bosqichda o'quvchilarda o'qish, yozish, fikrlash, tahlil qilish, muloqot va ijodkorlik kabi asosiy kompetensiyalar shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" dagi yetakchi vazifalardan biri ta'lim-tarbiyani ko'tarish, ta'lim mazmunini yangilash, yosh avlodning aqliy-intellektual taraqqiyotini ta'minlashga yo'naltirilgan uzluksiz ta'lim-tarbiyaning yangi modelini ilmiy-metodik jihatdan ta'minlangan holda muntazam takomillashtirib borishdan iboratdir. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" samaradorkigini oshirishda uzluksiz ta'lim tizimini pedagogik hamda axborot texnologiyalari bilan ta'minlashga erishish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon 1-4 sinflar orasidagi uzviylikni ta'minlash bilan bog'liq. Bugungi kunda ta'lim jarayonida keng qo'llaniyotgan axborot texnologiyalari o'quv jarayonini harakatlantiruvchi kuch yoki oldindan belgilab qo'yilgan aniq maqsad yo'lida o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan tadbirlar majmuasidir. Ta'limning kafolatlanganlik natijasi samaradorlikni va maqsadga erishishni belgilaydi. Bundan ko'rinadiki natija maqsadga qancha yaqin bo'lsa, o'quv-tarbiya jarayoni shuncha samarador hisoblanadi va bu ta'limning zamonaviy texnik vositalari va ilg'or texnologiyalarni amalga oshirishning muhim jihatlaridan bo'lib, ikkinchi talqin, ta'lim-tarbiya jarayoni maqsadi, vositasi, natijasini oldindan o'rganish, qayd etish yo'llari bilan o'qituvchining kafolatlangan natijaga erishishini ta'minlash. Shunday qilib ta'lim jarayoniga interfaol usullarni qo'llashda o'qituvchi ta'lim jarayonining boshqaruvchisi vazifasida bo'lib, bunda boshqaruv maqsadi ta'limning ob'yekti va sub'yekti sifatida o'quvchiga yo'naltiriladi.

Boshlang'ich ta'lim metodologiyasi — bu ta'lim jarayonining ilmiy asoslarini o'rganadigan, nazariya va amaliyotni uyg'unlashtiradigan fan sifatida o'qitishning samarali usul va yo'llarini belgilaydi. Metodologik yondashuvsiz ta'lim jarayonini tizimli tashkil etish, uni tahlil qilish va natijadorlikni baholash imkonsizdir. Boshlang'ich ta'lim metodologiyasi pedagogika fanining tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, o'qitish mazmunini belgilash, metod va vositalarni tanlashga xizmat qiladi. Metodologiya asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quv-tarbiyaviy jarayonning qonuniyatlarini aniqlash;
- o'quvchilarning psixologik xususiyatlariga mos metodlarni ishlab chiqish;
- didaktik jarayonning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni joriy etish;
- metodik faoliyatni tahlil va baholash mezonlarini ishlab chiqish.

Ilmiy metodologiya o'qituvchi faoliyatida asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Chunki har bir o'qituvchi o'z faoliyatida nazariy bilimga asoslanmagan holda samarali natijaga

erisholmaydi. Shu boisdan o'qituvchi metodik tayyorgarlik, ilmiy izlanish va refleksiv yondashuv orqali o'z faoliyatini takomillashtirib borishi lozim. Boshlang'ich ta'lim metodikasi ta'lim jarayonining amaliy yo'nalishini belgilaydi. Bu yo'nalish o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, darsni interaktiv tashkil etish bilan chambarchas bog'liq.

Metodik yondashuv quyidagi tamoyillarga tayanadi:

- shaxsga yo'naltirilganlik — har bir o'quvchining individual xususiyatini hisobga olish;
- faoliyatga yo'naltirilganlik — o'quvchini ta'lim jarayonining faol sub'yektiga aylantirish;
- integrativlik — fanlararo aloqadorlikni ta'minlash;
- refleksivlik — o'quvchi va o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish malakasini shakllantirish.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, zamonaviy o'qituvchilar tomonidan qo'llanilayotgan "Aqliy hujum", "Insert", "Blits-so'rov", "Klaster", "Debat" kabi interaktiv usullar o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muloqot va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali natijalar beradi.

Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayoni o'quvchilarning kognitiv (bilish) faolligini oshirish, ularni ijodiy fikrlashga undashda muhim vosita hisoblanadi. "Aqliy hujum", "Bumerang", "Sinkveyn", "Blum taksonomiyasi" asosida tuzilgan topshiriqlar o'quvchining o'z fikrini mustaqil ifodalash, tahlil qilish va baholash kompetensiyasini rivojlantiradi. Boshlang'ich ta'lim metodologiyasining ilmiy-metodik asoslari, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va bolalarning rivojlanishiga yordam berish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy tamoyillarni o'z ichiga oladi. Ushbu asoslar quyidagi komponentlardan iborat: Bolalar psixologiyasi boshlang'ich ta'lim metodologiyasining muhim qismidir. Bolalarning rivojlanish bosqichlari, kognitiv jarayonlari, his-tuyg'ulari va ijtimoiy munosabatlari ta'lim jarayonida hisobga olinishi kerak. Kognitiv rivojlanish: Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi bolalarning fikrlash jarayonlarini tushunishga yordam beradi. U bolalar o'z bilimlarini qanday shakllantirishi va yangi ma'lumotlarni qanday qabul qilishlarini o'rganadi. Sotsial rivojlanish: Lev Vygotskiy nazariyasi bolalarning ijtimoiy muhitda o'zaro aloqalari va o'zaro ta'sirlar orqali qanday o'rganishini ko'rsatadi. Vygotskiy "yaqin rivojlanish zonasini" ta'kidlaydi, bu yerda o'qituvchi yoki kattalar bolalarga yordam berishi mumkin.

Boshlang'ich ta'lim metodologiyasi turli metodlardan foydalanishni o'z ichiga oladi:

O'yin orqali o'qitish: O'yinlar bolalarning qiziqishini oshirish va ularni faol ishtirok etishga undaydi. O'yinlar orqali bilimlarni qiziqarli va samarali tarzda o'rganish mumkin.

- Guruhli ish: Bolalarni guruhlariga bo'lish orqali ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va bir-biridan o'rganish imkonini yaratadi.

- Loyihaviy faoliyat: Muayyan loyiha ustida ishlash bolalarga ijodkorlik, muammolarni hal qilish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ta'lim jarayonida baholash va teskari aloqa muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar bolalarning muvaffaqiyatlarini baholash va ularga kerakli maslahatlar berish orqali ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydilar. Bolalarga o'z bilimlarini baholash imkonini berish, ularning mustaqillik va mas'uliyat hissini oshiradi. Ota-onalar bilan hamkorlik ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biridir. Ota-onalar bolalarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi, ularning rivojlanishini kuzatishi va o'qituvchilar bilan muloqot qilishi kerak. Ta'lim jarayonida ota-onalarni jalb qilish, ularning bilimlarini oshirish va bolalarining ta'limdagi muvaffaqiyatlariga hissa qo'shish imkonini beradi. O'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida samarali muloqot bolalarning ta'limi va tarbiyasida yaxshilanishlarga olib keladi

Metodik faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, elektron darsliklar, onlayn platformalar, interaktiv o'yinlar orqali dars jarayonini jonlantirish bugungi kun talabiga aylandi. Bu esa o'qituvchilarning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi va o'qituvchi faoliyatini samarali tashkil etishga zamin yaratadi.

Metodik kompetensiya — o'qituvchining ta'lim jarayonini ilmiy-metodik asosda tashkil etish, o'qituvchilarning ehtiyoj va imkoniyatlarini aniqlash hamda o'qitishning optimal usullarini tanlash qobiliyatidir.

Bunday kompetensiya quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

- nazariy-metodik tayyorgarlik;
- didaktik tahlil ko'nikmasi;
- innovatsion fikrlash;
- refleksiv faoliyat.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi o'z faoliyatini doimiy tahlil qilib borishi, yangi metodlarni o'rganishi, ilmiy-metodik adabiyotlarni o'qib borishi zarur. Bu jarayon o'qituvchini haqiqiy metodik rahbar darajasiga olib chiqadi. Demak, pedagogik texnologiya ta'lim mazmuni usul, shakl va vositalar asosida yuzaga keladi. Ushbu jarayon kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltiriladi. Ma'lumki, ta'limdan asosiy maqsad bolalarga bilim

berishgina emas, balki bilim olish yo'llarini o'rgatish, ularni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish demakdir. Yangicha ijtimoiy, iqtisodiy sharoitda boshlang'ich ta'limda o'qitish tizimini takomillashtirish, darslarni jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilish o'quvchi faolligini oshiradigan muhim omillardan hisoblanadi. O'quv mashg'ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda tashkil qilish, talabaparni dars jarayonida maqsadli boshqara olish, ayni kunda o'qituvchilik faoliyatining bosh mezoni deb qaralmoqda.

Boshlang'ich ta'lim metodologiyasi — ta'lim jarayonining sifat va samaradorligini ta'minlashda poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy-metodik asosda tashkil etilgan darslar o'quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, izlanishga moyil, ijodkor shaxs sifatida shakllantiradi. Shu bois, har bir o'qituvchi o'z pedagogik faoliyatini ilmiy yondashuv, zamonaviy texnologiyalar va metodik innovatsiyalar bilan uyg'unlashtirishi zarur. Faqat shundagina boshlang'ich ta'limda kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. — Toshkent, 2023.
2. Xolmatova, M. "Boshlang'ich ta'lim metodikasi." — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
3. Yo'ldoshev, J. & Hasanboeva, O. "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti." — Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. Shodiev, D. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar." — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. Shirinov, A. "Ta'limda innovatsion yondashuvlar." — Toshkent: Ilm ziyo, 2020.